

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra viloyatda 4310 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 756 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,5 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 755 tasi (17,5 %) kiyim ishlab chiqarishga, 634 tasi (14,7 %) Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 429 tasi (10,0 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-sentabr holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan **24 268,4** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	24268,4	109,1
Namangan shahar	7301,9	107,2
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	665,7	107,1
Kosonsoy tumani	1166,0	109,4
Namangan tumani	1218,4	106,4
Norin tumani	230,9	107,7
Pop tumani	611,4	109,8
To'raqo'rg'on tumani	4327,2	108,6
Uychi tumani	1238,3	107,2
Uchqo'rg'on tumani	634,7	106,8
Chortoq tumani	720,8	122,1
Chust tumani	2159,8	114,1
Yangiqo'rg'on tumani	346,3	113,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-avgust oylarida 7 716,3 ming so'm (2024- yil yanvar-avgust oylarida 5 482,5 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-avgust oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 19 797,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,6 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashtirishda 4 040,6 mlrd so'm (16,7 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 327,3 mlrd so'm (1,3 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 103,1 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-avgust oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 6 741,2 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 56,9 % ga kamaygan), 354,7 tonna paxta tiviti(lint) (54,5 % ga kamaygan), 27 514,0 tonna Ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (18,5 % ga ko'paygan), 21 735,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,8 % ga kamaygan) hamda 5 653,9 tonna tozalanmagan paxta yog'i (42,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Paxta chigiti, tonna	17336,8	15627,1	6741,2
Paxta tiviti (lint), tonna	678,6	779,9	354,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	-	23225,0	27514,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	27676,1	24353,7	21735,6
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	3958,0	9892,5	5653,9
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	5560,0	7411,0	2011,7
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	29837,6	30233,9	32986,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	994,6	4062,6	4201,5

**2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 40,3 % (2025-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,3 % (2025-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %)ni, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish va mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatishning ulushi esa–10,0 % (2025-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2024-yilning yanvar-avgust oylarida 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,9 % (7,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,9 % (15,4 %), quyi texnologiyali 74,8 % (76,3 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 98,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 73,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust *	2024-yil yanvar- avgust*	2025-yil yanvar- avgust
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	4 536,6	4 254,2	4 191,0
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	41,5	69,5	51,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 11,7 % ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 41,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 10,1 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- avgust*	2024-yil yanvar- avgust*	2025-yil yanvar- avgust
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	73,5	99,2	110,8
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	6,7	6,6	9,4
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	24,4	42,6	46,9

*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 354,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 47,0 % ni tashkil etgan.



VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Abduraxmonova
69 227-84-80 (5010)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
